


2021- yil uchun Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilda Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 59 357,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yil bilan taqqoslaganda 7,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 109,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 8,1 % ga yetdi.




**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da</i>
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
I. YAHM, jami	50 605,8	59 357,7	107,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	49 684,3	58 347,4	107,2
mahsulotlarga sof soliqlar	921,5	1 010,3	107,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	49 684,3	58 347,4	107,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 862,2	8 770,5	104,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	37 008,9	42 437,2	107,4
sanoat	35 324,2	40 265,2	107,0
qurilish	1 684,7	2 172,0	115,1
xizmatlar	5 813,2	7 139,7	109,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 280,6	1 577,2	109,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	771,4	988,8	118,8
boshqa xizmat tarmoqlari	3 761,2	4 573,7	107,6

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 57 983,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,2 % ga yuqoridir.

2020-2021- yillarda aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 15,0 % ni, sanoat tarmog'i 69,0 % ni, qurilish 3,7 % ni va xizmatlar sohasi 12,3 % ni tashkil qildi.

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

	2020- yil	2021- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,2	98,3
mahsulotlarga sof soliqlar	1,8	1,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	13,8	15,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	74,5	72,7
sanoat	71,1	69,0
qurilish	3,4	3,7
xizmatlar	11,7	12,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2,6	2,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1,6	1,7
boshqa xizmat tarmoqlari	7,5	7,9

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 15,0 %), sanoatda – 107,0 % (69,0 %), qurilishda – 115,1 % (3,7 %), xizmatlar sohasida – 109,6 % ni (12,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,7 % (2,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,8 % (1,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,6 % dan (7,9 %) iborat bo'ldi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,5 f.p. (2020- yilda – 0,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 4,9 f.p. (2020- yilda – 5,8 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2020- yilda salbiy – 0,2 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,1 f.p. (2020- yilda – 0,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2020- yilda – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.

2021- yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2021- yilda YAHM deflyatori indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 109,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 122,9 % va xizmat ko'rsatish sohasida – 112,1 % qayd etildi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2021- yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 27,1 %ni tashkil qildi (2020- yilda – 25,4 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

